Теоретические аспекты развития мотивационной сферы в психологии изучения личности	1003
Маликова Эвелина Тимуровна	



Психологическая устойчивость личности в исследованиях узбекских учёных: теоретический анализ и применение концепции	1007
Саитходжаев Зуфар Хусан угли	
Biologiya ta'limida kognitiv yondashuv asosida o'quvchilarning universal o'quv faoliyatlarini shakllantirish	1011
Daminova Fayoz Abdixakimovna	
Milliy musiqa merosini zamonaviy ta'limda saqlash muammolari va yechimlari.....	1014
Haydarov Qutlug' Hamdamovich	
Sun'iy intellekt: maktabgacha ta'lim tashkilotining taraqqiyotini ta'minlovchi zamonaviy texnologiya sifatida.....	1017
Axmadaliyeva Mohlaroy Toxtapo'latovna	
Shukur Xolmirzayevning ijtimoiy-etnografik folklorizm yaratish mahorati.....	1021
Mamayusupova S. M.	
Androgogik va interfaol metodlarni jismoniy tarbiya mashg'ulotlarda foydalanish samaradorligi.....	1024
Normamatov Muxiddin Abdumuminovich	
Tinglab tushunishning psixolingvistik xususiyatlari.....	1028
O. V. Kon	
Gi de Mopassanning hikoyachilik mahorati va badiiy uslubi.....	1032
Yuldashev Bahodir Bekmuratovich	
Художественный мир и стилистическая система прозы Патрика Модiano.....	1035
Давронова Зульфия Бобоевна	
Umumta'lim maktablari yuqori sinf o'quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda pedagogik qarashlar	1041
Xamidov Amin Abdulloevich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qish darslarida kreativ fikrlashga o'rgatish.....	1044
Abduvahob Eshmurodov	
Talabalarda tibbiy bilimlarini rivojlantirishda "Svetofor" metodining ahamiyati va xususiyatlari.....	1047
Akbarova Dono Rahmatdjonovna	
Yosh davrlariga qarab harakat koordinatsiyasining rivojlanish bosqichlari va badiiy gimnastikada ritmning ahamiyati.....	1051
Beknazarova Lobar Shokir qizi	
Mashq va topshiriqlar tizimi orqali talabalarning komparativ-kreativ fikrlashini shakllantirish.....	1055
Mohinbonu Usmonova	
Maktabgacha ta'lim muassasalarida milliy qadriyatlar asosidagi kompetensiya metodlarini takomillashtirish	1058
Hamdamova Manzura Zuvaydillayevna	
Akademik ko'nikma va uning tipologik tasnifi	1062
N. J. Isakulova	
Формирование коммуникативной компетентности детей старшего дошкольного возраста в процессе взаимодействия со сверстниками.....	1068
Намазбаева Лола Закировна, Умерова Зарема Ремзиевна	
Formativ baholashning nazariy asoslari va fizika fanida qo'llash imkoniyatlari.....	1073
Sobirov Avazbek Anvarovich	
Jismoniy tarbiya darslarida milliy o'yinlardan foydalanish	1078
Ibragimov Shuhratbek	
Interaktiv ta'lim muhitida o'quvchilarning kasbiy-ma'naviy tasavvurlarini boyitish yo'llari.....	1082
Mutallibjonov Ma'rufjon	
O'tkir Rahmat ijodida qo'llanilgan kognitiv metaforalar.....	1088
Maxammatova Feruza Olimovna	
Tarbiya darslarida muammoli ta'lim texnologiyasi orqali o'quvchilarning mustaqilligini rivojlantirish.....	1092
Qurboniyozova Mardona Fayzulla qizi	



Bo'lajak filolog shaxsining kasbiy-pedagogik kompetensiyalari va ularning tarkibiy tuzilmalari	1096
Artikov Akram Elmurodovich	
O'qituvchilarning kasbiy rivojlanishini ta'minlashda malaka oshirish kurslari va metodik qo'llanmalarning roli	1100
Ochilova Gavhar Hamid qizi	
PISA xalqaro baholash dasturining o'ziga xos xususiyatlari	1107
Babayeva M. A.	
Shaxsga yo'naltirilgan va kompetensiyaviy yondashuvlar asosida bo'lajak o'qituvchilarning kongruentlik qobiliyatini rivojlantirishning metodik ta'minoti	1112
Qobilova Nilufar Xudoyshekurovna	
Kreativlik tushunchasining psixologik-pedagogik talqini va uni rivojlantirishning nazariy modeli	1119
Otamurodova Shamsu Qamar Otamurodovna	
O'qituvchi va ota-onalar o'rtasidagi muloqot madaniyatining o'quvchilarning emotsional nutq rivojiga psixologik ta'siri	1124
Shadiyev Feruz Djaxonovich	
Maktab rahbarlarining liderlik salohiyatini rivojlantirishda ijtimoiy-psixologik mexanizmlarning roli	1129
Turaxonov Abdulkarim Eshkuziyevich	
Cultural Memory and Historical Transformations in Uzbek and English Toponyms	1133
Toshmamatova Umida O'ktam qizi	
Olimpiya shon-shuhrat muzeyi ayol xodimlari o'rtasida sog'lom turmush tarzi va sog'lomlashtiruvchi jismoniy mashg'ulotlarning ahamiyati	1137
Ziyoda Ikromovna Gulyamova	

SHAXSGA YO'NALTIRILGAN VA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVLAR ASOSIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KONGRUENTLIK QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHNING METODIK TA'MINOTI

UDK: 378.147:37.091.12

Qobilova Nilufar Xudoysukurovna

Qarshi davlat texnika universiteti dotsent

<https://orcid.org/0009-0007-5648-6985>

Annotatsiya: Mazkur maqolada oliy pedagogik ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy shakllanishini ta'minlovchi muhim shaxsiy-kasbiy sifatlardan biri kongruentlik qobiliyatini rivojlantirishning metodik ta'minoti ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan yoritilgan. Tadqiqotda metodik ta'minot bo'lajak o'qituvchilarning ichki kasbiy qadriyatlari, emotsional-psixologik holati va pedagogik faoliyatdagi xatti-harakatlari o'rtasidagi uyg'unlikni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik usullar, shakllar, vositalar va shart-sharoitlar majmuasi sifatida talqin etiladi. Maqolada shaxsga yo'naltirilgan, kompetensiyaviy va loyihaviy yondashuvlar integratsiyasi asosida kongruentlik qobiliyatini rivojlantirishning metodik mexanizmlari asoslab beriladi. Xususan, individual va guruhviy loyihalar, muammoli pedagogik vaziyatlar, refleksiv mashg'ulotlar, treninglar va portfel texnologiyalaridan foydalanish bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy o'zini anglashini, refleksiv tafakkurini hamda emotsional barqarorligini rivojlantirishga xizmat qilishi ko'rsatib beriladi.

Tadqiqotda metodik ta'minot tarkibida professor-o'qituvchilarning fasilitatorlik va tyutorlik faoliyatining ahamiyati alohida ta'kidlanib, konstruktiv pedagogik muloqot va muntazam feedback bo'lajak o'qituvchilarda ochiqlik, ishonch va kasbiy moslikni shakllantirishda muhim omil ekanligi ilmiy asoslanadi. Shuningdek, kongruentlik qobiliyatining rivojlanish darajasini aniqlashda diagnostik vositalar va matematik-statistik tahlil usullaridan foydalanish imkoniyatlari yoritiladi.

Maqola natijalari bo'lajak o'qituvchilarning shaxsiy va kasbiy uyg'unligini ta'minlash, pedagogik faoliyatni insonparvarlashtirish hamda oliy pedagogik ta'lim tizimida zamonaviy pedagog kadrlar tayyorlash samaradorligini oshirishga xizmat qilishi bilan ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: pedagogik kongruentlik, bo'lajak o'qituvchi, metodik ta'minot, kasbiy shakllanish, shaxsiy-kasbiy uyg'unlik, loyihaviy yondashuv, refleksiya, fasilitatorlik faoliyati, tyutorlik qo'llab-quvvatlash, pedagogik faoliyat.

Abstract: This article examines, from scientific, theoretical, and practical perspectives, the methodological support for developing congruence ability as one of the key personal and professional qualities ensuring the professional formation of pre-service teachers in the context of higher pedagogical education. In the study, methodological support is interpreted as a complex of pedagogical methods, forms, tools, and conditions aimed at fostering harmony between pre-service teachers' internal professional values, emotional-psychological states, and their behavioral patterns in pedagogical activity.

The article substantiates the methodological mechanisms for developing congruence ability through the integration of person-centered, competency-based, and project-based approaches. In particular, the use of individual and group projects, problem-based pedagogical situations, reflective sessions, training activities, and portfolio technologies is shown to contribute to the development of pre-service teachers' professional self-awareness, reflective thinking, and emotional stability. Special emphasis is placed on the role of faculty members' facilitative and tutoring activities within the structure of methodological support. Constructive pedagogical communication and systematic feedback are scientifically justified as significant factors in fostering openness, trust, and professional alignment among pre-service teachers. Furthermore, the study highlights the use of diagnostic tools and methods of mathematical-statistical analysis to assess the level of development of congruence ability.

The findings of the article demonstrate that the proposed methodological support contributes to ensuring the personal and professional harmony of pre-service teachers, humanizing pedagogical activity, and enhancing the effectiveness of modern teacher training within the system of higher pedagogical education, thereby determining its scientific and practical significance.

Key words: pedagogical congruence, pre-service teacher, methodological support, professional development, personal-professional harmony, project-based approach, reflection, facilitative activity, tutoring support, pedagogical activity.



Аннотация: В данной статье с научно-теоретических и практических позиций рассматривается методическое обеспечение развития способности к конгруэнтности как одного из ключевых личностно-профессиональных качеств, обеспечивающих профессиональное становление будущих учителей в условиях высшего педагогического образования. В исследовании методическое обеспечение интерпретируется как комплекс педагогических методов, форм, средств и условий, направленных на формирование согласованности между внутренними профессиональными ценностями, эмоционально-психологическим состоянием и поведенческими проявлениями будущих учителей в педагогической деятельности. В статье обосновываются методические механизмы развития способности к конгруэнтности на основе интеграции личностно-ориентированного, компетентностного и проектного подходов. В частности, показано, что использование индивидуальных и групповых проектов, проблемных педагогических ситуаций, рефлексивных занятий, тренингов и портфельных технологий способствует развитию профессионального самосознания, рефлексивного мышления и эмоциональной устойчивости будущих учителей. Особое внимание уделяется роли фасилитаторской и тьюторской деятельности преподавателей в структуре методического обеспечения. Научно обосновано, что конструктивное педагогическое общение и систематическая обратная связь выступают значимыми факторами формирования открытости, доверия и профессиональной согласованности у будущих учителей. Кроме того, в статье раскрываются возможности использования диагностических инструментов и методов математико-статистического анализа для оценки уровня развития способности к конгруэнтности.

Результаты исследования имеют научно-практическую значимость, поскольку способствуют обеспечению личностно-профессиональной гармонии будущих учителей, гуманизации педагогической деятельности и повышению эффективности подготовки современных педагогических кадров в системе высшего педагогического образования.

Ключевые слова: педагогическая конгруэнтность, будущий учитель, методическое обеспечение, профессиональное становление, личностно-профессиональная гармония, проектный подход, рефлексия, фасилитаторская деятельность, тьюторское сопровождение, педагогическая деятельность.

KIRISH

Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashni takomillashtirish zamonaviy ta'limning eng dolzarb va keng qamrovli vazifalaridan biridir. Ta'lim jarayonining raqamli transformatsiyasi, pedagogik jarayonlarga innovatsion texnologiyalarning joriy etilishi va o'quv-tarbiya tizimlaridagi uzluksiz o'zgarishlar shuni talab qiladi: o'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki shaxsga yo'naltirilgan pedagogik yondashuvni amalga oshira oladigan mutaxassis sifatida shakllanishi zarur. Zamonaviy oliy pedagogik ta'lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biri bo'lajak o'qituvchilarning nafaqat kasbiy bilim va ko'nikmalarini, balki ularning shaxsiy-kasbiy sifatlarini uyg'un holda rivojlantirishdan iboratdir. Ta'lim jarayonining insonparvarlashuvi, pedagogik faoliyatning ijtimoiy va axloqiy mas'uliyati ortib borayotgan hozirgi sharoitda o'qituvchining ichki qadriyatlari, emotsional holati va tashqi pedagogik xatti-harakatlari o'rtasidagi moslikni ta'minlovchi kongruentlik qobiliyati alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Bugungi kunda o'qituvchi kasbiy faoliyatida faqat normativ-huquqiy hujjatlar, davlat ta'lim standartlari va pedagogik texnologiyalar bilan belgilangan talablarni bajaruvchi ijrochi sifatida emas, balki o'zining professional pozitsiyasiga ega, refleksiv, mas'uliyatli va pedagogik faoliyat muallifi sifatida namoyon bo'lishi talab etilmoqda. Biroq amaldagi pedagog kadrlar tayyorlash amaliyoti shuni ko'rsatadiki, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligida kongruentlik qobiliyatini maqsadli va tizimli rivojlantirish masalalariga yetarli darajada e'tibor qaratilmayapti. Natijada yosh pedagoglarda kommunikativ qiyinchiliklar, emotsional beqarorlik, refleksiv yetishmovchilik va kasbiy moslashuvdagi muammolar kuzatilmoqda.

Pedagogik faoliyatda kongruentlik o'qituvchining shaxsiy qadriyatlari, kasbiy e'tiqodlari va real pedagogik xatti-harakatlari o'rtasidagi uyg'unlikni ifodalovchi integrativ kasbiy sifat sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu sifat o'qituvchining pedagogik muloqot samaradorligi, ta'lim-tarbiya jarayonidagi ochiqqligi, ishonchligi hamda emotsional barqarorligini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Shu bois bo'lajak o'qituvchilarda kongruentlik qobiliyatini rivojlantirish pedagogik ta'lim mazmunini yangilash va sifat jihatdan takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

Mazkur jarayonda metodik ta'minot alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki aynan metodik ta'minot orqali kongruentlik qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik maqsadlar, mazmun, shakl va usullar o'zaro uyg'unlashtiriladi, ta'lim jarayonining refleksiv va loyihaviy xarakteri ta'minlanadi. Loyihaviy yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy o'zini anglashini, shaxsiy pozitsiyasini shakllantirishini hamda pedagogik faoliyat bilan moslashtirishini ta'minlovchi samarali vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Shu munosabat bilan bo'lajak o'qituvchilarning kongruentlik qobiliyatini rivojlantirishning metodik ta'minotini ilmiy jihatdan asoslash, uning tarkibiy qismlari, mexanizmlari va samaradorlik shart-sharoitlarini aniqlash zamonaviy pedagogika fanining dolzarb ilmiy-amaliy muammolaridan biri hisoblanadi. Mazkur maqola ana shu muammoni hal etishga, oliy pedagogik ta'lim tizimida bo'lajak o'qituvchilarning shaxsiy va kasbiy uyg'unligini ta'minlashga qaratilgan ilmiy yondashuvlarni asoslashga bag'ishlanadi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kongruentlik o'qituvchining ichki kechinmalari, qadriyatlari va tashqi pedagogik xatti-harakatlari uyg'unligini ifodalaydi va pedagogik samaradorlikni belgilovchi markaziy komponent sifatida e'tiborga olinadi, shu bois, bo'lajak o'qituvchilarning kongruentlik qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan metodik ta'minot ta'limning sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Hozirgi zamon ta'lim tizimida o'qituvchining kasbiy faoliyatida pedagogik kongruentlikning rivojlanishi ta'lim sifati va talabalarning intellektual hamda shaxsiy rivoji uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Pedagogik kongruentlik- bu o'qituvchining ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish, talabalar bilan ijobiy pedagogik munosabat o'rnatish va innovatsion yechimlar ishlab chiqish imkoniyatini ta'minlovchi integral sifatidir.

Pedagogik kongruentlikni shakllantirish va rivojlantirishning samarali bo'lishi uning metodik ta'minotiga bog'liq. Bu jarayonda nazariy bilimlar, uslubiy tavsiyalar va amaliy mashg'ulotlar kompleksidan foydalaniladi.

Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik kongruentlikni shakllantirishda metodik ta'minot nafaqat mashg'ulotlar va treninglardan iborat, balki u ta'limning asosiy prinsiplariga mos ravishda tashkil etilishi lozim. Ta'lim prinsiplarini qo'llash orqali o'qituvchi o'z pedagogik faoliyatini ongli va samarali tarzda amalga oshiradi, shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni mustahkamlaydi va o'quv jarayonining sifatini oshiradi.

Ta'lim prinsiplari zamonaviy didaktikada ta'limning ichki qonuniyatlari va komponentlari bilan uzviy bog'liq holda talqin qilinadi. Masalan, K. Sosnitskiy ^[1] prinsiplarning har biri ta'lim jarayonining ma'lum bir elementi ko'rgazmalilik prinsipi ta'lim vositalari, shaxsiy rivojlanish prinsipi esa ta'lim maqsadlari bilan bog'liqligini ta'kidlaydi. Yu.K.Babanskiy ^[2] esa prinsiplarni ta'limning mazmuni, metodlari va shakllariga ko'ra tizimlashtiradi: ilmiylik, hayotiylik, tizimlilik, izchillik, tushunarlilik, ongli-faollik, metod va vositalarning uyg'unligi, individual va jamoaviy yondashuvlar, mustahkamlovchanlik va natijaviylik kabi prinsiplar shular jumlasidandir.



1-rasm: Ta'lim prinsiplari

Zamonaviy ta'lim jarayonida prinsiplarni faqat komponentlarga tayanib belgilash ularning universal didaktik mohiyatini cheklashi mumkin. Chunki prinsiplar barcha fan tarmoqlari, o'quv bosqichlari, ta'lim shakllari va texnologiyalariga nisbatan amal qiladigan umumiy nazariy me'yorlardir. Ular shuningdek, har qanday o'qituvchi, talaba, ilmiy-pedagogik izlanish olib boruvchi, metodist yoki ta'limni boshqaruvchi shaxslar uchun zarur bo'lgan nazariy va amaliy poydevor vazifasini bajaradi.

Zamonaviy pedagogikada prinsiplarni ta'lim qonuniyatlaridan kelib chiqib belgilash yondashuvi ham mavjud. Masalan, N.A.Sorokin ta'limning rivojlantiruvchanlik va tarbiyaviylik qonuniyatlarini asos qilib olib, prinsiplar mohiyatini tahlil qiladi ^[9]. V.I.Zagvyazinskiy esa prinsiplarni o'quv jarayonining ichki qonuniyatlari asosida tasniflaydi. Biroq bu yondashuvda prinsiplarning amaliy zaruriyatini unutmaslik kerak ^[11]. Chunki qonuniyatlar ob'ektiv bo'lib, inson ongidan qat'i nazar mavjud bo'lsa, prinsiplar o'z mohiyatiga ko'ra, faoliyatda ongli tanlanadigan, amaliyotda qo'llaniladigan va pedagogik jarayonni boshqarishda mezon sifatida xizmat qiladigan vositadir.

Umuman olganda, ta'lim prinsiplari – bu umumdidaktik kategoriya bo'lib, ular ta'limning barcha shakllari (individual, guruh, sinf, masofaviy), barcha bosqichlari (boshlang'ich, o'rta maxsus, oliy), barcha ishtirokchilari (o'qituvchi va o'quvchi), barcha tarkibiy qismlari (maqsad, mazmun, metod, vosita, natija) uchun yagona ilmiy asos vazifasini bajaradi. Ular pedagogik tizimda yagona me'yorni belgilaydi, zamonaviy ta'limda raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, moslashuvchan o'qitish platformalari, interaktiv metodlar va kreativ yondashuv-



lar bilan uyg'unlashgan holda faol tatbiq etilishi zarur. Shu bois ta'lim prinsiplari nafaqat nazariy tushuncha, balki ta'limni samarali va zamonaviy tashkil qilishda asosiy metodik asos sifatida qaralishi kerak.

Y.A. Komenskiy va A. Disterveg asarlarida ta'lim prinsiplari tizimi: tarixiy va zamonaviy tahlil. Ta'lim prinsiplari bu ta'lim jarayonini samarali tashkil qilishga xizmat qiluvchi umumiy qonuniyatlarga asoslangan qoidalar bo'lib, ular o'qitish mazmuni, shakli va metodlariga yo'naltiruvchi asos vazifasini bajaradi. Mazkur prinsiplarni tizimlashtirish va nazariy asoslash masalasi didaktika tarixida birinchi marta Y.A. Komenskiy tomonidan ko'tarilgan^[3].

Yan Amos Komenskiy o'zining mashhur "Didactica Magna" ("Buyuk didaktika") asarida ta'limning tabiatga mosligini asosiy tamoyil sifatida ilgari suradi^[9]. U quyidagi ta'lim prinsiplarini ilgari surgan:

- ko'rgazmalilik – bilim olish bevosita sezish, kuzatish orqali amalga oshiriladi; shuning uchun ta'limda narsalar, tasvirlar, amaliy ko'rsatmalar muhim ahamiyatga ega;
- tushunarliklik – yangi bilim berishdan oldin o'quvchining psixologik va intellektual tayyorgarligi ta'minlanishi zarur;
- izchillik va tizimlilik – bilimlar o'zaro bog'liqlikda, ketma-ketlik asosida berilishi kerak;
- faollik – ta'lim jarayonida o'quvchi faol ishtirok etishi, o'rganishga bo'lgan qiziqishi oshirilishi lozim;
- bilim va ko'nikmalarning mustahkamligi – o'rganilgan bilimlar amaliyotda qo'llaniladigan darajada chuqur o'zlashtirilishi kerak.

Garchi Komenskiy asarlarida "ta'lim prinsipi" atamasi ochiqchasiga ishlatilmagan bo'lsa-da, u ilgari surgan g'oyalar zamonaviy ta'lim prinsiplarining nazariy negizini tashkil etadi.

Adolf Disterveg^[4] nemis pedagogikasining yorqin vakili bo'lib, ta'lim prinsiplarini tizimlashtirishga katta hissa qo'shgan. Uning 1835-yilda chop etilgan "Nemis o'qituvchilarini tayyorlashga oid qo'llanma" asarida ta'lim prinsiplari mazmun va o'qituvchi-o'quvchi faoliyati asosida shakllantirilgan. U quyidagi prinsiplarni ilgari surgan:

- ko'rgazmalilik va tushunarliklik – bilimlar oson qabul qilinadigan, ongli anglanadigan shaklda taqdim etilishi kerak;
- izchillik va tizimlilik - bilimlar fanning ichki tuzilishiga muvofiq ravishda uzviy va bosqichma-bosqich berilishi lozim;
- ilmiylik – ta'lim mazmuni zamonaviy ilm-fan yutuqlariga tayanishi shart;
- faollik va mustaqillik – o'quvchi bilim olishda passiv emas, balki faol subyekt sifatida qatnashishi kerak;
- insonparvarlik va individual yondashuv – har bir o'quvchining qiziqishlari, salohiyati va ehtiyojlari inobatga olinishi zarur.

Distervegning yondashuvi bilan shuni ta'kidlash joizki, u ba'zi prinsiplarga maxsus nomlar berib, ularning amaliyotda qo'llanish doirasini kengaytirdi.

Hozirgi zamon ta'limida prinsiplarni yangicha talqin etish, ularni raqamli va innovatsion o'qitish jarayonlariga moslashtirish muhim masalaga aylangan. Zamonaviy ta'lim prinsiplarini ko'paytirish emas, balki ularni samarali qo'llash va integratsiyalashga e'tibor qaratish lozim. Prinsiplarni faqat nazariy tasniflash emas, balki pedagogik amaliyotda ularning qanday qo'llanilishi, qanday natijalar berishi va o'qituvchining faoliyatiga qanday ta'sir qilishi ustuvor vazifa bo'lib qolmoqda.

Kongruentlik o'qituvchiga shaxsiy va professional uyg'unlikni, pedagogik samaradorlikni va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni ta'minlash imkonini beradi. Kongruentlik qobiliyati yuqori bo'lgan o'qituvchi nafaqat samarali bilim beruvchi, balki talabalar uchun shaxsiy rivojlanish modeli sifatida faoliyat yuritadi, shu bois, kongruentlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan metodik ta'minot zamonaviy ta'lim tizimida bo'lajak pedagoglar tayyorlashning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Talabalar maqsadlariga oid ko'plab tadqiqotlar mavjud bo'lishiga qaramay, hozirgi tadqiqotda qiziqish uyg'otadigan jihat shundaki, kamchilik bilan olimlar o'qituvchilar maqsadlari va talaba maqsadlari o'rtasidagi munosabatni va bu munosabatning talabalar motivatsiyasining boshqa jarayonlariga qanday ta'sir qilishi masalasini o'rganishgan. Aslida, talabalarning belgilagan maqsadlari shaxsiy ijtimoiy va akademik maqsadlar bilan bir qatorda, talabalarning hayotidagi boshqa manfaatdor shaxslar (masalan, ota-onalar, o'qituvchilar) tomonidan belgilangan maqsadlar natijasida ham shakllanadi^[5].

Masalan, o'qituvchilar talabalardan akademik jihatdan muvaffaqiyatli bo'lishni, ijtimoiy jihatdan ijobiy xulq-atvor namoyon qilishni va sinf qoidalariga rioya qilishni kutishlari mumkin va dars davomida ba'zi maqsadlarni boshqalariga nisbatan ustun qo'yishlari ehtimol. Talabalar esa shu maqsadlarni o'zlari uchun belgilashi yoki o'qituvchining ta'kidlashiga e'tibor bermaslikni tanlashi mumkin.



Hozirgi kunda o'qituvchilar tomonidan talabalarga belgilangan maqsadlar belgilash bo'yicha kam tadqiqotlar mavjud. Biroq, Krumboltz^[6] va boshqalar 18 yoshgacha bo'lgan talabalarning maqsadlarini baholagan. Ularning tadqiqotida eng muhim jihat shundaki, o'qituvchilar axloqiy sohani (masalan, axloqiy qaror qabul qilish, halollik) eng muhim deb baholagan, ikkinchi o'rinda esa o'qishga bo'lgan motivatsiya turadi. Shaxslararo kompetensiya (masalan, tengdoshlar bilan muvofiqlik) uch guruhning ham birinchi yoki ikkinchi o'rinda turadi.

Wentzel^[7] maktab o'qituvchilarining "ideal" talaba tavsifida uch turdagi ijobiy natijalarni ajratganini bildiradi:

1. **Ijtimoiy natijalar** – hamkorlikda ishlash va bo'lishish ko'nikmalarining shakllanishi, boshqalarga yordam ko'rsatishga tayyorlik, belgilangan qoidalar va me'yorlarga ongli ravishda rioya etish;
2. **O'rganishga oid motivatsion sifatlar** – qat'iyatlilik va mehnatsevarlikning namoyon bo'lishi, tadqiqotchilikka yo'naltirilgan qiziqishning kuchayishi hamda ichki o'quv motivatsiyasining rivojlanishi;
3. **Faoliyat natijalari** – o'quv yutuqlarining oshishi (yuqori baholarga erishish), zarur bilim va ma'lumotlarni egallash, o'quv topshiriqlarini sifatli va o'z vaqtida bajarish.

Shuningdek, talabalar qadrlaydigan va erishishga intiladigan ta'limga oid maqsadlar mazmuni bo'yicha tadqiqotlar ham kam uchraydi [8]Shunga qaramay, talabalar ijobiy ijtimoiy va akademik natijalarga erishishga intilishini bildiradilar.

Akademik va ijtimoiy kompetensiyalar o'qituvchilar hamda talabalar tomonidan talabalarning erishishi lozim bo'lgan ustuvor maqsadlar sifatida doimiy ravishda e'tirof etiladi. Mazkur tadqiqotda asosiy e'tibor an'anaviy akademik maqsadlar bilimlarni o'zlashtirish va yuqori o'quv natijalariga erishishga qaratildi.

Ijtimoiy sohada esa ijobiy va mas'uliyatli xulq-atvorni shakllantirish bilan bog'liq maqsadlar alohida ahamiyat kasb etdi, chunki muvaffaqiyatli talaba bo'lish diqqatni jamlay olish, tengdoshlar bilan samarali hamkorlik qilish hamda tajovuzkor yoki tartibsiz xulq-atvordan tiyilish kabi ijtimoiy me'yorlarga rioya etish bilan chambarchas bog'liqdir (Ladd, 1989; Wentzel, 1991a).

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, talabalar bir vaqtning o'zida bir nechta maqsadlarni amalga oshirishga intiladi va ayrim maqsadlar majmuasi boshqa maqsadlarga nisbatan yanada ijobiy akademik va ijtimoiy natijalar bilan bog'liq bo'ladi (Allen, 1986; Wentzel, 1993). Demak, o'qituvchining kongruent pedagogik faoliyati talabalarda ko'p yo'nalishtirish maqsadlarni shakllantirish, ularni barqaror qo'llab-quvvatlash hamda yuqori akademik va ijtimoiy natijalarga erishishda muhim pedagogik shart-sharoitlardan biri hisoblanadi.

Ta'lim jarayonidagi qiziqish va ishtirok masalalarini tahlil qilgan Phalen, Davidson va Cao (1991) tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, oila, tengdoshlar va o'qituvchilar tomonidan bildirilgan tajribalar o'rtaidagi uyg'unlik talabalarning o'quv faoliyatida sezilarli farqlarni yuzaga keltiradi. Xususan, turli ijtimoiy kontekstlarda uyg'unlikni boshdan kechirgan talabalar o'qituvchilar tomonidan dars jarayonida faol, mas'uliyatli va ijobiy xulq-atvor egasi sifatida baholanish ehtimoli yuqori bo'ladi. Bu holat bo'lajak o'qituvchining kongruent pedagogik pozitsiyasi talabaning sinf muhitiga moslashuvini kuchaytirishini tasdiqlaydi.

Talaba-o'qituvchi maqsadlari uyg'unligida muhim hisoblangan maktabga (yoki ta'lim muhitiga) moslashuv ko'rsatkichlari qatoriga darsga bo'lgan qiziqish, o'qituvchi tomonidan ko'rsatilayotgan ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni qabul qilish, shaxsiy nazorat hamda o'z qobiliyatiga oid e'tiqodlar kiradi. Csikszentmihalyi (1990) ta'kidlaganidek, shaxs va vaziyat o'rtaidagi uyg'unlik yuqori bo'lgan taqdirda, faoliyat mazmunli, qiziqarli va rivojlantiruvchi sifatida qabul qilinadi. McKeachie (1961) esa yuqori ijtimoiy ehtiyojga ega bo'lgan talabalar o'qituvchi tomonidan ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni his qilganida, ularning o'quv faolligi va akademik natijalari oshishini aniqlagan.

O'qituvchidan sezilgan ijtimoiy va pedagogik qo'llab-quvvatlash talabalarning o'rganishga bo'lgan motivatsiyasi, ijtimoiy mas'uliyatli xulq-atvori, ta'limiy maqsadlari va qadriyatlarini hamda akademik qiziqishlari bilan uzviy bog'liqdir (Goodenow, 1993; Harter, 1996; Wentzel, 1997, 1998). Shu nuqtai nazardan, bo'lajak o'qituvchining kongruentligi, ya'ni talabalarga berilayotgan talablar, bildirilayotgan munosabat va real pedagogik amaliyotning o'zaro mosligi ta'lim muhitida ijobiy psixologik iqlimni shakllantiruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shaxs-muhit uyg'unligi nazariyasi (Bronfenbrenner, 1989; Connell & Wellborn, 1991; Eccles & Midgley, 1989) ham ijtimoiy rivojlanish uchun umumiy maqsad va vazifalarning mavjudligini muhim shart sifatida e'tirof etadi.

Talaba-o'qituvchi maqsadlari uyg'unligi darajasi, shuningdek, talabalarning shaxsiy nazorat va qobiliyat haqidagi e'tiqodlarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi (Weiner, 1985)[14]. Ushbu tadqiqotda nazorat e'tiqodlari hodisalar sababini tushuntirishga oid ishonchlar sifatida talqin qilinadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, akademik muvaffaqiyat ko'p jihatdan ichki nazorat e'tiqodlari bilan bog'liq bo'lib, noma'lum yoki tashqi nazorat e'tiqodlari past o'quv natijalarining kuchli prediktori hisoblanadi (Connell, 1985; Schmitz & Skinner, 1993). Bo'lajak o'qituvchi tomonidan beriladigan izchil, adolatli va rivojlantiruvchi fikr-mulohazalar ushbu e'tiqodlarning shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi (Skinner et al., 1998; Pintrich & Blumenfeld, 1985)[15].



Talabanning o'z qobiliyati haqidagi sezimi esa uning sinfdoshlariga nisbatan akademik darajasi to'g'risidagi e'tiqodlari sifatida talqin qilinadi (Thorkildsen & Nicholls, 1998). Mazkur e'tiqodlar motivatsiya va real o'quv natijalari bilan chambarchas bog'liq (Eccles et al., 1998). O'qituvchi talabanning akademik imkoniyatlari haqidagi eng barqaror axborot manbai bo'lganligi sababli, talaba va o'qituvchi maqsadlari uyg'unligi, ayniqsa, "yaxshi natijaga erishish"ga yo'naltirilgan maqsadlar doirasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Talaba-o'qituvchi maqsadlari uyg'unligi o'quv jarayonidagi muhim o'tish bosqichlarida, xususan, o'rta yoki oliy ta'limning dastlabki kurslarida yanada dolzarb bo'ladi. Ushbu davrda talabalar ijtimoiy munosabatlarga ko'proq e'tibor qaratgan holda, o'qituvchilar ta'limiy intizom, akademik mas'uliyat va kasbiy tayyorgarlikka urg'u beradi. Bunday vaziyatda bo'lajak o'qituvchining kongruentligi talaba va ta'lim talablari o'rtasidagi nomutanosiblikni yumshatishning muhim pedagogik mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi. Shu asosda tadqiqot ikki asosiy maqsadni ko'zladi: birinchidan, talabalar va o'qituvchilar tomonidan qo'llab-quvvatlanayotgan akademik va ijtimoiy maqsadlarni aniqlash; ikkinchidan, talaba-o'qituvchi maqsadlari uyg'unligi darajasi va uning talabalarning motivatsion natijalari akademik nazorat e'tiqodlari, darsga qiziqish, sezilgan qobiliyat va o'qituvchi tomonidan sezilgan qo'llab-quvvatlash bilan bog'liqligini aniqlash. Umuman olganda, oliy ta'limda bo'lajak o'qituvchining kongruentligi talaba va o'qituvchi maqsadlari uyg'unligini ta'minlash, talabalarning motivatsion sohasini rivojlantirish hamda barqaror akademik va ijtimoiy natijalarga erishishning muhim pedagogik sharti sifatida baholanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'tkazilgan tajriba-sinov ishlari bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik kongruentlik qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan metodik ta'minotning samaradorligini aniqlashga xizmat qildi. Tadqiqot jarayonida loyihaviy yondashuv asosida tashkil etilgan pedagogik faoliyat bo'lajak o'qituvchilarning ichki kasbiy qadriyatlarini, emotsional-psixologik holati va tashqi pedagogik xatti-harakatlari o'rtasidagi uyg'unlik darajasiga sezilarli ta'sir ko'rsatgani aniqlandi.

Boshlang'ich (aniqlovchi) bosqich natijalari shuni ko'rsatdiki, tadqiqotda ishtirok etgan talabalarning aksariyatida pedagogik kongruentlikning shakllanish darajasi o'rta va past ko'rsatkichlar bilan ifodalangan. Xususan, talabalar pedagogik vaziyatlarda ichki ishonch va tashqi xatti-harakatlar o'rtasida nomutanosiblik, emotsional beqarorlik hamda refleksiv tahlilning yetarli emasligi bilan ajralib turgan. Bu holat pedagogik kadrlar tayyorlash jarayonida kongruentlik qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan maxsus metodik ta'minot yetarli darajada yo'lga qo'yilmaganligini tasdiqlaydi. Shakllantiruvchi bosqichda tajriba guruhida loyihaviy yondashuv asosida ishlab chiqilgan metodik ta'minot joriy etildi. Mazkur ta'minot individual va guruhviy pedagogik loyihalar, refleksiv mashg'ulotlar, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, pedagogik treninglar hamda o'z-o'zini baholash mexanizmlarini qamrab oldi. Ushbu faoliyatlar orqali bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy o'zini anglash darajasi, pedagogik qaror qabul qilishdagi ishonchligi va emotsional barqarorligi izchil rivojlandi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Nazorat bosqichi natijalari tajriba va nazorat guruhlarida o'rtasida sezilarli farqlar mavjudligini ko'rsatdi. Tajriba guruhidagi talabalar orasida pedagogik kongruentlikning yuqori darajasi qayd etilib, ularning pedagogik mulqotda ochiqligi, talabalar bilan ijobiy munosabat o'rnatish qobiliyati hamda refleksiv faoliyat ko'rsatkichlari sezilarli darajada oshgani aniqlandi. Aksincha, nazorat guruhida bunday ijobiy o'zgarishlar kamroq namoyon bo'ldi. Olingan empirik ma'lumotlar matematik-statistik tahlil asosida qayta ishlanib, tajriba guruhidagi o'zgarishlarning statistik jihatdan ishonchli ekanligi tasdiqlandi ($p < 0,05$). Bu esa bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik kongruentlik qobiliyatini rivojlantirishda loyihaviy yondashuvga asoslangan metodik ta'minotning yuqori samaradorligini ilmiy jihatdan asoslash imkonini berdi. Tadqiqot natijalari adabiyotlar sharhida keltirilgan nazariy qarashlar bilan uyg'unlikda muhokama qilindi. Xususan, C. Rogers tomonidan ilgari surilgan kongruentlik konsepsiyasi, shuningdek, Wentzel, Eccles va Csikszentmihalyi tomonidan asoslangan shaxs-muhit uyg'unligi g'oyalari tadqiqot natijalari bilan tasdiqlandi. Bo'lajak o'qituvchilarning kongruent pedagogik pozitsiyasi talabalar maqsadlari va ta'lim talablari o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlash, talabalarning o'quv motivatsiyasini oshirish va ijobiy akademik hamda ijtimoiy natijalarga erishishda muhim omil ekanligi aniqlandi. Shuningdek, tadqiqot natijalari pedagogik kongruentlikni rivojlantirish faqat individual psixologik sifatlarni shakllantirish bilangina cheklanmasdan, balki ta'lim jarayonini metodik jihatdan to'g'ri tashkil etish, o'qituvchi va talaba maqsadlari uyg'unligini ta'minlash hamda ijobiy pedagogik muhitni shakllantirish bilan chambarchas bog'liq ekanligini ko'rsatdi. Bu esa bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligida kongruentlik qobiliyatini rivojlantirishni tizimli pedagogik vazifa sifatida ko'rib chiqish zarurligini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik kongruentligini rivojlantirishga yo'naltirilgan metodik ta'minot oliy pedagogik ta'lim tizimida ta'lim sifatini oshirish, shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni kuchaytirish hamda pedagog kadrlar tayyorlash jarayonini modernizatsiyalashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati:

1. http://sbooks.gnpbu.ru/text/problemy_shkolnogo_uchebnika_v3_1975/p20/
2. Бабанский, Ю. К. Избранные педагогические труды [Электронный ресурс] / Ю. К. Бабанский. – М.: Педагогика, 1989. – Режим доступа: http://elbib.gnpbu.ru/text/babanskiy_izbrannye-pedagogicheskietrudy_1989/go,2;fs,0
3. Akmaljon Ikrom O'g'li Axmedov Yan Amos Komenskiyning pedagogik g'oyalari // Scientific progress. 2022. №4. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/yan-amos-komenskiyning-pedagogik-g'oyalari.2026/>.
4. Adolf Diesterwegs Ausgewaehlte Schriften, herausgegeben von Eduard Langenberg, zweite durchgesehene Auflage, Frankfurt a. M., 1890, 2 Band, S. 57.
5. Веракса Николай Евгеньевич, Веракса Александр Николаевич Понимание детского развития с позиции экологической теории У. Бронфенбреннера // СДО. 2014. №10. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ponimanie-detskogo-razvitiya-s-pozitsii-ekologicheskoy-teorii-u-bronfenbrennera> (дата обращения: 02.02.2026)
6. https://hrmars.com/papers_submitted/21562/understanding-career-decision-making-influencing-factors-and-application-of-krumboltzs-social-learning-theory.pdf
7. Заварзина Л. Э., Корчагина Д. Ю. К. Н. Вентцель о нравственном воспитании // Историко-педагогический журнал. 2017. №4. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/k-n-venttsel-o-nravstvennom-vospitanii> (дата обращения: 02.02.2026).]
8. Eccles, J. S., Wigfield, A., & Schiefele, U. (1998). Motivation to succeed. In W. Damon & N. Eisenberg (Ed.), Handbook of child psychology: Social, emotional, and personality development (5th ed., pp. 1017–1095). John Wiley & Sons, Inc..]
9. Komenskiy Ya.A. Buyuk didaktika (Didactica Magna). – Toshkent: O'qituvchi, 1975. – 312 b
10. Rogers C. On Becoming a Person. – Boston: Houghton Mifflin, 1961. – 420 p.
11. Wentzel K.R. Social–motivational processes and interpersonal relationships: Implications for understanding motivation at school // Journal of Educational Psychology. – 1997. – Vol. 89(1). – P. 1–15.
12. Csikszentmihalyi M. Flow: The Psychology of Optimal Experience. – New York: Harper & Row, 1990. – 303 p.
13. Eccles J.S., Midgley C. Stage–environment fit and young adolescents' experiences in schools // American Psychologist. – 1989. – Vol. 44. – P. 485–493.
14. Connell J.P., Wellborn J.G. Competence, autonomy, and relatedness: A motivational analysis of self-system processes // Self Processes and Development. – Chicago: University of Chicago Press, 1991. – P. 43–77.
15. Weiner B. An Attributional Theory of Achievement Motivation and Emotion // Psychological Review. – 1985. – Vol. 92(4). – P. 548–573.
16. Pintrich P.R., Blumenfeld P.C. Classroom experience and children's self-perceptions of ability, effort, and strategy use // Journal of Educational Psychology. – 1985. – Vol. 77. – P. 646–657.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №3(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.